



LEGAL SIGNIFICANCE OF ENVIRONMENTAL AUDIT IN ENSURING ENVIRONMENTAL SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Bakhadir Ospanovich Jienbaev

Senior Lecturer of the Legal Sciences Cycle

Regional Training Center of the Republic of Karakalpakstan

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Nukus, Karakalpakstan

ABOUT ARTICLE

Key words: environmental audit, environmental safety, environmental protection, enterprise, environment, standardization.

Received: 13.01.26

Accepted: 14.01.26

Published: 15.01.26

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical essence of the environmental audit institute, the methodological basis for its implementation, and its practical application. It is legally substantiated that environmental audit is an important management tool in environmental protection, strengthening environmental safety, and increasing the environmental efficiency of economic activity. Scientific and practical proposals aimed at improving the national environmental audit system will also be put forward.

EKOLOGIK BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKOLOGIK AUDITNING HUQUQIY AHAMIYATI

Baxadir Ospanovich Jienbaev

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Qoraqalpog'iston Respublikasi mintaqaviy o'quv markazi

Huquqiy fanlar sikli katta o'qituvchisi

Nukus, Qoraqalpog'iston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ekologik audit, ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, korxona, atrof tabiiy muhit, standartlashtirish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik audit institutining ilmiy-nazariy mohiyati, uni amalga oshirishning metodologik asoslari hamda amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi. Ekologik auditning atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va xo'jalik faoliyatining ekologik samaradorligini

oshirishda muhim boshqaruv vositasi ekanligi huquqiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, milliy ekologik audit tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО АУДИТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Бахадир Оспанович Жиенбаев

Старший преподаватель цикла правовых дисциплин Регионального учебного центра Республики Каракалпакстан Министерства внутренних дел Республики Узбекистан Нукус, Каракалпакстан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: environmental audit, environmental safety, environmental protection, enterprise, environment, standardization.

Аннотация: This article analyzes the scientific and theoretical essence of the environmental audit institute, the methodological basis for its implementation, and its practical application. It is legally substantiated that environmental audit is an important management tool in environmental protection, strengthening environmental safety, and increasing the environmental efficiency of economic activity. Scientific and practical proposals aimed at improving the national environmental audit system will also be put forward.

Kirish. So‘nggi yillarda sanoatlashuv, urbanizatsiya va tabiiy resurslardan intensiv foydalanish natijasida atrof-muhitga tushayotgan yuklama sezilarli darajada oshdi. Ushbu holat ekologik xavfsizlikni ta’minlash va tabiatni muhofaza qilishning samarali huquqiy hamda tashkiliy mexanizmlarini joriy etishni talab etmoqda. Shunday mexanizmlardan biri ekologik audit hisoblanadi.

Ekologik audit xo‘jalik yurituvchi subyektlarning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini baholash, ekologik qonunchilik talablariga muvofiqligini aniqlash va ekologik tavakkalchiliklarni kamaytirishga qaratilgan mustaqil nazorat shaklidir. O‘zbekiston Respublikasida ekologik audit instituti alohida qonun bilan tartibga solingan bo‘lib, u ekologik boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Avvalo, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha boshlagan misli ko‘rilmagan ishlarimizni davom ettirib, dengizning qurigan tubida o‘rmonzorlarni kengaytirish, Nukus, Urganch va Xiva shaharlari atrofida “yashil belbog”lar

barpo etishimiz lozim. Ishlab chiqarish jarayonini ekologik nazorat qilish tizimini takomillashtirish, ekologik audit o'tkazish tartibini qayta ko'rib chiqib, xususiy auditorlik faoliyatini jonlantirish ham muhim vazifadir"[1.], deya ta'kidlangani bejiz emas.

O'zbekiston Respublikasida ekologik auditni huquqiy ta'minlash masalasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ekologik audit korxonalar va tashkilotlarning ekologiya sohasidagi faoliyatini baholash, amaldagi ekologik qonunchilik talablariga muvofiqligini aniqlash hamda ekologik tavakkalchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida ekologik audit instituti mustaqillik yillarida shakllanib, "Ekologik audit to'g'risida"gi Qonun bilan huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ushbu maqolada umumilmiy va maxsus metodlardan kompleks foydalanildi. Xususan, tizimli yondashuv ekologik audit institutini yaxlit mexanizm sifatida o'rganishga xizmat qildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil orqali ekologik auditning milliy va xorijiy modellari o'zaro solishtirildi. Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish metodi amaldagi qonunchilikdagi ekologik auditga oid normalarning mazmunini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, mantiqiy tahlil va ilmiy umumlashtirish metodlari yordamida ekologik auditning funksiyalari, bosqichlari va amaliy ahamiyati tizimlashtirildi. Tadqiqot davomida ochiq manbalardagi ilmiy adabiyotlar va rasmiy huquqiy hujjatlardan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-martdagi «Ekologik audit to'g'risida»gi O'RQ-678-son Qonuniga muvofiq, ekologik audit — ekologik audit subyekti amalga oshiradigan xo'jalik va boshqa faoliyatni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etish yuzasidan ekologik auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan tizimli, hujjatlashtirilgan, mustaqil baholash tushuniladi[2.].

Shuningdek, ekologiya qonunchiligida hamda maxsus ilmiy adabiyotlarda ekologik auditning boshqa ko'plab ta'riflari uchraydi. Buni ko'p jihatdan ekologik audit yangi turlarining bugungi kunda faol rivojlanishi bilan izohlash o'rin hisoblanadi. Ushbu ta'riflardagi farqlar olimlar tomonidan ekologik auditning obyektlari, maqsadi, vazifalari, mazmuni, mezonlari va turlarini turli yondashuvlar nuqtai-nazaridan tushunishlariga asoslanadi.

Sh.X.Fayziyev ta'kidlashicha, ekologik audit tushunchasini quyidagicha ifodalagan: ekologik audit (ingliz tilida "audit" - "u eshitadi") ekologik auditorlar yoki ekologik auditorlik tashkilotlarning atrof tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatuvchi xo'jalik faoliyatini mustaqil tekshirish va atrof tabiiy muhit hamda aholi salomatligiga salbiy ta'sirni kamaytirish bo'yicha tavsiyalarini ishlab chiqishdan iborat bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Ekologik audit ekologik-huquqiy normalarning amalga oshirilishida muhim vosita hisoblanadi[3 B-110.].

Boshqa manba[4 B-91.] larda, ekologik audit – ekologik auditorlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda o‘tkaziladigan, atrof tabiiy muhit holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan, ishlab turgan korxonalar va boshqa obyektlarni mustaqil ekologik ekspertiza qilishdir.

Ekologik qonunchilik tahlili, ekologik audit davlat ekologik ekspertizasidan farqli ravishda xo‘jalik va ishlab chiqarish obyekti mulkdorining qaroriga binoan o‘tkazilishini bildiradi. Shundan kelib chiqqan holda ekologik auditning amalga oshirish turlarini tahlil etish uning tushunchasini aniqlashga xizmat qilishini ta’kidlash o‘rinlidir. Professor A.N.Nigmatov ekologik auditni quyidagi turlarga ajratib ko‘rsatgan: 1) ishlab chiqarish ekologik ekspertiza; 2) hududiy ekologik ekspertiza; 3) ekologik konsalting[5 B-133.].

Yuridik adabiyotlarda ekologik auditning funksiyalari mazmunini yoritishga alohida e’tibor qaratilganligini ko‘rish mumkin. Masalan, A.B.Vengerovning fikriga ko‘ra, ekologik auditning funksiyalari deb, u yoki bu siyosiy-huquqiy institutning yo‘nalishi, faoliyatining predmeti, ushbu faoliyat mazmuni, uni har tomonlama ta’minlash tushuniladi[6 B-164.]. Ushbu termindagi funksiya so‘zini (lot. “functio” – ijro etish, bajarish) biror ijtimoiy tashkilot, kimsa yoki narsaning ishi, faoliyat doirasi va vazifasi[7 B-367], deb J.A.Madvaliev ta’riflagan.

Professor M.M.Brinchukning ta’kidlashicha, ekologik audit ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan qarorlarni tayyorlash va qabul qilishning asosiy huquqiy vositalaridan biri bo‘lib, uning yordamida ekologik sohada boshqaruv funksiyalari amalga oshiriladi[8 38-52-betlar.].

Atrof muhitga ta’sir ko‘rsatadigan muayyan faoliyatining turli xil jihatlari bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash hamda tekshirilayotgan obyektidagi ekologik vaziyatning eng to‘liq tasavvurini shakllantirishda ekologik audit muhim hisoblanadi. Sababi ekologik audit natijalari asosida to‘plangan ma’lumotlar bo‘yicha tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi ma’lumotlarni tizimlashtirilgan hisoboti ishlab chiqiladi va bu orqali tekshirilayotgan hududda mavjud muammolar yuzasidan tavsiyalar berish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha ekologik audit quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- muayyan obyektlarning ekologik qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish;
- atrof-muhitdagi ekologik xavflarni aniqlash va baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik samaradorligini oshirish;
- ekologik zararlarni kamaytirish va boshqalar.

Muhokama va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-sonli “Atrof tabiiy muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”[9]gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 343-son “Atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini baholash tizimini

yanada takomillashtirish to'g'risida"[10]gi qarorlari atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi holatlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra, 2023-yil davomida 805 ta subyektlarning 6 641 ta manbalarida atmosfera havosi, suv tuproq ifloslanishi bo'yicha ekologik monitoring o'tkazilganligi (atmosfera havosi bo'yicha 382 ta korxonaning 3139 ta manbasida, suv resurslari bo'yicha 272 ta korxonaning 2248 ta manbasida, tuproq ifloslanishi monitoringi bo'yicha 151 ta korxonalarning 1254 ta manbalarida) 180 ta obyektning 500 ta manbalarida atrof muhitni me'yordan ortiq ifloslantirish holatlari qayd etilgan va qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rilgan[11.].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ekologik audit asosan yirik sanoat va energetika korxonalarida o'tkazilmoqda. Biroq kichik va o'rta biznes subyektlarida ekologik auditning qamrovi yetarli darajada emas. Shuningdek, ekologik audit natijalarining majburiy ijro etilishi mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagan.

Tadqiqot natijalari ekologik audit atrof-muhitni muhofaza qilishda samarali mexanizm ekanligini ko'rsatmoqda. Biroq uning amaliy samaradorligi bir qator omillarga bog'liq. Jumladan, ekologik auditning ko'ngilli xarakterga ega bo'lishi, malakali auditorlar yetishmasligi va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining sustligi tizimning to'liq ishlashiga to'sqinlik qiluvchi omillar hisoblanadi.

Korxonalarda ekologik samaradorlik rejalashtirishga asoslangan va tegishli ekologik siyosatda aks ettirilgan maqsadli ekologik ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Maqsadli ekologik ko'rsatkichlarni tahlil qilish va ularni tasdiqlash qonuniy talablarga, rejalashtirilgan moliyaviy xarajatlarga va amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Hozirgi vaqtda bir qator rivojlangan davlatlarda ekologik muammolarning kuchayishi soha mutaxassislarida mavjud muammolarni kompleks hal etishga yangicha yondashish imkonini beradigan institutlarga nisbatan qiziqishini orttirmoqda. Bunday institut yoki mexanizmlar ekologik boshqarish va ekologik audit bo'lib, ularni amalga oshirishga katta umid bog'lanadi.

Fikrimizcha, korxonalarda ekologik auditning vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. korxonaning atrof tabiiy muhit bo'yicha ekologik strategiyasi va siyosatini asoslab berish;
2. korxonaning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish faoliyatini rejalashtirishning zarur yo'nalishlarini belgilash, uni amalga oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni aniqlash;
3. xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya etilishini tekshirish;

4. alohida tabiiy obyektlarga ham, umuman ekologik tizimlarga ham salbiy ta'sirni kamaytirish yoki o'zgartirish;

5. favqulodda vaziyatlar xavfini minimallashtirish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi "Ekologik audit to'g'risida"gi qonunining

5-moddasida ekologik audit standartlari ekologik auditni o'tkazish, turdosh xizmatlar ko'rsatish va ekologik auditorlar ishining sifatini nazorat qilish tizimini tashkil etish tartibini belgilaydi. Milliy ekologik audit standartlari ekologik auditorlik faoliyatini amalga oshirishga doir yagona talablarni belgilaydi. Ekologik auditorlik tashkilotlari ekologik auditni o'tkazish chog'ida shartnomaga muvofiq xalqaro ekologik audit standartlarini qo'llashi mumkin[12], deya belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-noyabrda "Standartlashtirish to'g'risida"gi O'RQ-800-son Qonuni[13]da "standart" "milliy standart" va "xalqaro standart" tushunchalariga ta'rif berilgan, unga ko'ra, standart faoliyatning har xil turlariga yoki ularning natijalariga taalluqli bo'lgan, umumiy va ko'p marta foydalanish uchun qoidalarni, umumiy prinsiplarni yoki tavsiflarni belgilaydigan hamda muayyan sohada tartibga solishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan hujjat ekanligi, milliy standart esa, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston standartlar instituti tomonidan qabul qilingan hamda keng jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan standart ekanligi hamda xalqaro (mintaqaviy) standart — standartlashtirish bo'yicha xalqaro yoki mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va keng jamoatchilik doirasi uchun ochiq bo'lgan standart ekanligi ta'kidlangan.

Hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlarda, standartlar uchta yo'nalishda: mahsulot sifati, atrof tabiiy muhitni boshqarish tizimlari va ekologik audit bo'yicha o'tkazilmoqda. Standart tavsiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, audit tamoyillari, audit dasturlarini boshqarish, sifat menejmenti tizimlari va ekologik menejment tizimlarining auditini o'tkazish va auditorlarning ushbu auditlarni o'tkazish bo'yicha vakolatlari bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Standart sifat menejmenti tizimlari va ekologik menejment tizimlarining ichki va tashqi auditini o'tkazishi yoki audit dasturlarini boshqarishi kerak bo'lgan tashkilotlar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, huquq manbalariga tashkilotlarning normativ hujjatlari ham kiradi. Ekologik audit sohasidagi jamoatchilik munosabatlarini to'g'ri tartibga soluvchi yuqori darajadagi aktlar mavjud bo'lmaganda, ushbu aktlar katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekologik auditni majburiy element sifatida joriy etish va ISO 14001 standartlari bilan integratsiya qilish ekologik natijalarning yaxshilanishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ekologik audit ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishishda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Uni yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- ekologik audit natijalarining huquqiy ahamiyatini kuchaytirish;
- ekologik auditni yuqori ekologik xavfga ega korxonalar uchun majburiy joriy etish;
- auditorlar tayyorlash va sertifikatlash tizimini rivojlantirish;
- raqamli ekologik monitoring va audit tizimlarini joriy etish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ekologik audit ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlashda kompleks huquqiy ahamiyatga ega bo'lib, u ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, ekologik qonunchilik ijrosini ta'minlash va xo'jalik faoliyatining ekologik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, ekologik audit institutini yanada rivojlantirish, uning huquqiy maqomini kuchaytirish va amaliy qo'llanish doirasini kengaytirish ekologik barqaror rivojlanishga erishishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Ekologik audit atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ekologik majburiyatlarga rioya etishini ta'minlash hamda ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik audit orqali korxonalar va tashkilotlarning amaldagi ekologik talablarga muvofiqligi baholanadi, aniqlangan huquqbuzarliklar esa ularni bartaraf etish bo'yicha huquqiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Bu holat ekologik huquq normalarining real ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // president.uz (murojaat sanasi: 24.01.2020).
2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-martdagi O'RQ-678-son "Ekologik audit to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.
3. Fayziyev Sh.X. Ekologiya huquqi (darslik), Mualliflar jamoasi, – Toshkent. TDYU, 2018-yil. – B. 110.
4. Usmonov M.B., Rustamboev M.X., Xolmo'minov J.T. va boshqalar Ekologiya huquqi oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari uchun darslik. – T. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi "Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti 2001. – B. 91.
5. Ekologiya huquqi [Matn]: Darslik / Olim Narzullayev, Asqar Nigmatov. – T.:TDYU nashriyoti, 2025. – 133 B.
6. Венгеров А.Б. Теория государства и права. Учебник для юридических вузов. М., 2002. С. 164.

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.A.Madvaliev tahriri ostida. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 367.

8. Бринчук М.М. Правовой механизм подготовки и принятие экологически значимых решений //Государство и право.-№ 9.-2000 .- С. 38 - 52

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son “Atrof tabiiy muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 343-son “Atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.

11. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi rasmiy veb-sahifasi. // <http://eco.gov.uz> // Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan 2023 yilda amalga oshirilgan tadbirlar to‘g‘risida ma’lumot.

12. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-martdagi O‘RQ-678-son “Ekologik audit to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.

13. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-noyabrdagi O‘RQ-800-son “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.